

XOLCHAYON SAROYI QO'RIQLANISHGA MUHTOJ

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

AQXAI, Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti, Yurisprudensiya bakalavriat
ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

E-mail: sanjarisomiddinov147@gmail.com

Kamolov Saidnumon Abdumannonzoda

TerDU, Tarix fakulteti, Tarix bakalavriat ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xolchayon saroyi va majmuasi yodgorligining o'r ganilishi, uning arxeologik topilmalari, tuzilishi, tarixiy va bugungi kundagi ahamiyati hamda holati haqida keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Pugachenkova, Chag'anion, Dalvarzintepa, Qorabog'tepa, Xonaqotepa, Yunon-Baqtriya, Kushon davlati, saroy, ark, madaniyat, an'ana, ossuary, sopol.

ABSTRACT

In this article, the study of the monument of the Kholchayan palace and its complex, its archaeological findings, structure, historical and present-day significance, and its condition are described in detail.

Keywords: Pugachenkova, Chaganian, Dalvarzintepa, Karabogtepa, Khanaqotepa, Greco-Bactria, Kushan state, palace, arch, culture, tradition, ossuary, ceramics.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно описаны изучение памятника Холчаянского дворца и его комплекса, его археологические находки, структура, историческое и современное значение, состояние.

Ключевые слова: Пугаченкова, Чаганьян, Дальварзинтепа, Карабогтепа, Ханакотепа, Греко-Бактрия, Кушанское государство, дворец, свод, культура, традиция, склеп, керамика.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, Mustaqillikka erishganimizdan so'ng qadim o'tmishimizga va tarixan shakllanib kelgan boy madaniyatimizga bo'lgan e'tibor

yanada kuchaydi, ularni chuqur o‘rganish hamda tiklash, muqaddas qadamjolarni obod qilish, yosh avlodga ular haqida bilim-ko‘nikmalar berish, davlatchiligidiz yo‘lida ulkan jasoratlar ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimiz kabi komil inson qilib tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli bizga ma’lum va noma’lum bo‘lgan arxeologik obyektlar va qadamjolarni ham chuqurroq o‘rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu orqali biz o‘z hududimizda mavjud bo‘lgan obyektlarni jahonga tanitishimiz va yosh avlodga vatanga muhabbat hissini yanada chuqurroq singdirishimiz mumkin. Mana shunday arxeologik obyektlardan biri Xolchayon saroyi yodgorligidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Xolchayon xarobalari Surxondaryoning o‘ng sohilida, aniqrog‘i, uning qadimgi qayirida, hozirgi Denov tumanining Xolchayon shirkat xo‘jaligi hududida joylashgan. Xolchayon qishlog‘idagi paxta dalasining shimoliy qismida bo‘rtib chiqqan do‘ngliklarni ko‘rish mumkin. Ulardan ba’zilarining nomi bor, bir qismi nomsiz. Ayrim tepaliklar turar joylar tagida qolmoqda yoki dalalarni haydab tekislash jarayonida yo‘q bo‘lib ketyapti. Bu do‘ngliklarning eng yirigi Qorabog‘tepa deb ataladi. Ayni paytda uning kattagina qismida imoratlar qurilgan, pastqamroq qismi esa ekinzorga aylantirilgan. Bu joyning yuza qismidan hamda chuqur bo‘lib qolgan yerlaridan topilgan arxeologik ashyolar unchalik ko‘p emas, aksari antik davrga oid sirlanmagan sopol parchalaridir, so‘nggi feodalizm davriga xos sirlangan sopol bo‘laklari ham uchraydi. Erta bahorda yerlar endi haydalib ekilgan va g‘o‘za nihollari maydonni hali qoplاب olmagan paytda, bu joylardagi katta-kichik tepaliklar oralig‘ida ko‘plab arxeologik ashyolar sochilib yotganini ko‘rish mumkin. Antik davrga xos arxeologik ashyolar siniqlari Xonaqotepadan shimolga 1 kilometr, janubga 400 metr, g‘arba 700 metr chamasi, sharqqa Qorabog‘tepagacha maydonda tarqalgan [1]. Ashyolarning tarqalish chegarasiga qarab, bu yerdagi qadimgi qarorgoh shimaldan janubga 2 kilometr va sharqdan g‘arba 1,5 kilometr maydonni egallagan, desa bo‘ladi.

San’atshunos, arxeolog olim G.A.Pugachenkovning ta’kidlashicha: “Mahalliy keksalar Xolchayon tevarak-atrofi hali o‘zlashtirilmagan paytda, bu yerlarda baland-past tepaliklar anchagina bo‘lganligi haqida guvohlik berishgan”[2]. Qadimiy qurilishlar o‘rnini anglatuvchi bu do‘ngliklar keyinchalik yerlarni tekislash, haydash vaqtida yo‘qolib ketgan. Xolchayonning umumi arxeologik-topografik manzarasi bu joyda qishloq xo‘jalik faoliyati bilan bog‘lik manzilgoh bo‘lganligini va Dalvarzintepaga o‘xshash xandaq va qo‘rg‘on bilan o‘rab olingan shahar mavjud bo‘limganligini ko‘rsatadi. Xolchayon o‘rnida joylashgan antik shahar qoldiqdari doirasida o‘rta asrlarga oid arxeologik ashyolar topilmalari juda oz miqdorda, Qo‘y-To‘rabektepada, undan g‘arbdagi bir do‘nglikda, undan shimalroqda joylashgan Yunustepada o‘rta asrlarga oid sirlangan sopol parchalari qayd etilgan. Xolchayonning

janubida va janubi-sharqida ham o‘rta asrga oid kichikroq aholi maskanlari qoldiqlari saqlanib qolgan. Ulardan yirikrog‘i Qozoqtepadir. Bu yerda pishiq g‘ishtlar X—XII asrlarga xos sopol, o‘rta asrlar mis tangalari uchraydi. Bu joydan topilgan ikkita qadahsimon idish tepalikning asosida Kushonlar davri qatlami yotgan, deb faraz qilishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Xolchayonda bizning tadqiqotlarimiz, asosan, Xonaqotepaga qaratildi. Xonaqotepaning g‘arb tomoni ancha buzilib ketgan, uni shu joydan o‘tadigan yo‘l kesib tushgan, shimoli-sharqiy qismi traktor ta’mirlash ustaxonasi hovlisi va imoratlari bilan band, unga tutash do‘nglikda esa xo‘jalik a’zolari uy qurib olishgan, janubi-sharqiy burchakda tegirmon bor. Biroq traktor ta’mirlash ustaxonasining hovlisida kvadrat shaklidagi do‘nglik yastangan, bu bizning dastlabki tadqiqot joyimiz bo‘ldi. Xolchayonni tadqiq etish shuni ko‘rsatdiki, Surxon vodiysining asosiy qismini tashkil etgan Chag‘oniyonni keng obodonlashtirish jarayoni miloddan oldingi birinchi ming yillikning o‘rtalarida sodir bo‘lgan. Bu joylarni o‘zlashtirish esa ancha oldin boshlangan bo‘lishi ham mumkin.

Xolchayonda tadqiqot olib borilgan bir nechta joyda Grek-Baqtriya podshohligi davri (mil.avv III-II asrlar) arxeologiyasi aks etgan. Demetriy tangasinig topilishi hamda Qorabog‘tepata mil.avv II-I asrlarga oid imoratlar qayd etilgani bunga misol bo‘la oladi [3].

O‘zining arxeologik-topografik qoldiqlarida miloddan oldingi II—I asrlarda Xolchayon yirik aholi maskani sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda mulkdorlarning (ehtimol, quldorlarning) turar joylari bog‘lar o‘rtasida joylashgan va atrofda ekinzorlar yastanganligi, Janubiy qismda birmuncha ixchamroq qurilishlar (Korabog‘tepa va Xonaqotepa) o‘rin olganligi, miloddan oldingi II—I asrlarda Xolchayonning rivojlanganligi yirik qurilishlarda o‘z aksini topganligi, Qorabog‘tepaning janubi-sharqida pishiq g‘isht (cherepitsa)dan qurilgan kattagina imorat qoldig‘i va saroyning yuzaga kelishi o‘sha davrga to‘g‘ri kelishi va Grek-Baqtriya davri imorati xarobasi o‘rnida xom g‘ishtdan g‘arbiy uy qad ko‘targanligi, keyin u kengaytirilib, uning markaziy baland qismi xom g‘isht va paxsa devor bilan tubdan qayta qurilganligi hamda Janubi-g‘arbdagi uyda ta’mirlash ishlari amalga oshirilganligi haqida manbalarda keltirib o‘tilgan [4].

Xolchayondan chiqqan sak-yuejiy davri sopollari kulolchilikning yanada rivojlanganligini, sopol buyumlar sifatining yaxshilanganligini, qizil tuproqli, ko‘p miqdorda sariq tuproqli sopollar aksariyatini tashkil etishni, qizil loydan ishlangan

sopollarning to‘q qizil yoki to‘q jigarrang tusda angob tarzida va qora rangga bo‘yashning keng yoyilishini ifodalaydi. Kulolchilik yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, Chag‘aniyonda aholi qarorgohlarining o‘sishi hamda rivojlanib borgan bozori, xususan, tog‘lik chorvador aholi bilan tovar ayrboshlash talablariga to‘la javob bergen degan farazga kelish mumkin. Xolchayondan topilgan sopollar to‘la-to‘kis shahar hunarmandchiligi uslubiga xosdir. Bu yerda ko‘chmanchilik davri ashylari aytarli uchramaydi. Xolchayondagi saroy binosi miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmida qad ko‘targan. Buning vaqtini arxeologik ma’lumotlar asosida hamda ayvon va mehmonxona bezaklari — gildan yasalgan haykalchalarining yasalish xususiyatlaridan aniqlash mumkin.

Saroy, aftidan, hukmdor xonadonining qaysidir a’zosi tomonidan qurilgan bo‘lishi mumkin. Saroyning uncha katta bo‘lmanligi uning sohibining O‘rta Osiyo tarixi sahnasida kattaroq siyosiy e’tiborga erishmaganligini yoki bu saroyning ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. U holda asosiy yirik saroy, shubhasiz, poytaxt shahar — Dalvarzintepada (yoki Budrachda) bo‘ladi. Dastlab imorat kichikroq qabulxona sifatida barpo etilgan va unda qabul hamda to‘y marosimlari o‘tkazilgan. Keyinchalik bu imorat shuhrat topib, “ilohiy ajdodlar uyi” vazifasini o‘tay boshlagan va butun Buyuk Kushonlar hukmronligi davrida o‘zining bu mavqeini saqlab qolgan.

Xolchayon saroyi “xazina”sida xorijiy mamlakatlardan keltirilgan ashylar — sharqiy Rim viloyatlarida ishlangan oyna-shisha, sadaf, arabi yoki hindcha qizg‘ish qimmatbaho toshlar (serdoliklar), xitoy ipak matolari qayd etilganligi antik Chag‘oniyonning chet ellar bilan keng ko‘lamda iqtisodiy aloqada bo‘lganligidan dalolatdir.

Milodiy II asr oxiri — III asr boshlarida Kushon imperiyasi inqirozga yuz tutadi. Bu jarayon Xolchayonda ayniqsa yorqin iz qoldirgan. Qorabog‘tepa istehkomi darvozaxonasi katta yong‘inda qolgan va uning izlari Kushonlar davri qurilishlarida yong‘in qatlami tarzida saqlangan. Xonqotepadagi o‘rganib chiqilgan uchala imorat ham xarob etilgan yoki qulatilgan. Bu hol ayniqsa saroyda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

1-rasm. Xolchayon yodgorligining hozirgi holati.



Bu yerda qimmatbaho ashyolar va ibodat buyumlari talon-taroj qilib ketilganligi bilan birga, taxtxonada tosh tagliklardan biri ag‘darib tashlangan, ayvonda esa ustun tagliklari qo‘porilgan, ba’zilari uloqtirib yuborilgan. Shundan so‘ng Xolchayonda hayot qisqa vaqt biroz me’yoriga keladi, bino qo‘l uchida ta’mirlanadi. III asrda shoshilinich qayta ta’mirlangan Xolchayon qo‘rg‘oni uzoqqa dosh bermaydi va butunlay tashlandiq bo‘lib qoladi. Saroy yonib ketgan, undagi haykallar yerda sochilgan, o‘rab turgan devorlar vayronaga aylangan. Boshqa Kushon arxeologik yodgorliklari ham xuddi shunday III asrda o‘zining oxirgi davrini yashab vayron bo‘lgan va abadiy tashlab ketilgan [5] (1-rasm).

Arablar bosib olgan davr (VII asr 2-yarmi) dan boshlab Xolchayon uzoq vaqt e’tiborsiz qoldi. XIII asr oxiri — XIV asr boshida antik tepaliklardan ba’zilari qabriston sifatida foydalaniladi. XVI asrda Qorabog‘tepaning shimoli-sharqi qismi dungligida qandaydir mulk paydo bo‘ladi. Shundan so‘ng shaxriston atrof hududi yanada botqoqlikka aylanib, bizning davrimizgacha o‘zlashtirilmay qoladi.

Xolchayon boshqa tarixiy yodgorliklardan ko‘ra butunlay boshqacha tuzilganligi haqida izlanishlar va solishtirish natijasi ularoq aytishimiz mumkin. “Unda ark ham(Qorabog‘tепа), yirik arxitektura majmuasi ham(Xonaqotepa) bor, ammo qurilishining ko‘pi keng maydonda katta-kichik(aftidan, quidorlik davriga xos) hovlilar ko‘rinishidadir. Shahar(butun tumanning) qishloq xo‘jaligi yo‘nalishiga mos holda tarkib topgan va rivojlanib borganligi sababli, ular bog‘ va uzumzorlar orasida, hosildor yerlar qo‘rshovida keng maydonda yoyilib qurilgan. Shahar qandaydir tashqi devor bilan o‘ralganmidi? – degan savol vujudga keladi. Bo‘lishi mumkin, biroq uning izlari saqlanmagan. Agar bunday devor bo‘lgan taqdirda ham ancha mo‘jaz bo‘lgan, unda baland devor, burjlar, tashqi xandaq kabilar bo‘lmagan”.

Xolchayon arxitekturasida Baqtriyaning asosiy me’morchilik uslublari mavjud xomashyo sifatida xom g‘isht va paxsadan foydalanilgan, qubbasimon peshtoq qurilgan uyni yopishda to‘sinlar keng qo‘llangan, ustunlar ko‘pincha yog‘ochdan va aksar holda tosh asos ustida bo‘lgan. Antik Xolchayon arxitekturasi shakli va ba’zi qismlari jihatidan O‘rta Osiyoning boshqa viloyatlaridagi shunday qurilishlar bilan o‘xhashligi bor, lekin aynan bir xil emas. Xolchayon arxitekturasi antik shakl-shamoyil ixtirochiligi uchun mahalliy me’morchilikning ko‘pgina uslub va an’analari asos qilib olingan va bu uslub keyingi davrlarda rivojlantirilgan devor va ravoqlar qurilishida asosiy xomashyo xom g‘isht bo‘lishi, gumbaz — ravoq tuzilmalarining oddiyligi, ayniqsa, ustunli ayvon va boshqalar ilk va rivojlangan o‘rta asrlar O‘rta Osiyo arxitekturasida qadimiy quidorlik shahar hamda qishloqlari quruvchilari sulolasini tajribasidan kirib kelgan. Masalan, Xolchayon saroyidagi zal — qabulxona ilk feodal O‘rta Osiyo arxitekturasi uslubi ham qorishgan. Xolchayondagi loydan yasalgan haykallar bu jarayonni yorqin namoyon etadi. Xolchayon haykalsozligining ahamiyati

shundaki, unda Baqtriya mahalliy matabining izlanish va shakllanish jarayonlarini ko‘ramiz. Bu jarayon mahalliy quldorlik madaniyatining O‘rta antik bosqichiga to‘g‘ri keladi.

Xolchayonda shohlar va homiy xudolar obrazlari yonma-yon tasvirlangan. Baqtrianing tarixiy aloqalari faqat Grek-Rim olami bilangina chegaralanib qolmagan. Xolchayonda ko‘p hollarda, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, Sharqiy Parfiya san’ati bilan o‘zaro aloqa sezilarli bo‘lgan. Bu aloqa ayniqsa me’moriy shakllar va ashylarda saroyni bezagan haykallar obrazlari guruhida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu o‘zaro aloqa xronologik (davriy) jihatdan asosan milodan avvalgi II — I asr — Grek-Baqtriya podshohligi va sak-yuejiy davrini o‘z ichiga oladi. Bu vaqtida aftidan Arshakidlar davlat, ayniqsa, hind-sak va hind-parfiya mulklari bilan bevosita aloqalar mavjud bo‘lgan. Buyuk Kushonlar davrida, ya’ni O‘rta Sharqning ikkita ulug‘vor quldorlik davlati — Arshakidlarning Parfiya davlati va Kushon podshohligi siyosiy raqobat holatida bo‘lgan vaqtdan boshlab bu aloqalar bir-biri bilan tutashdi. Biroq, Hindiston yarimoroli shimoliy qismining Kushon podshohligi tarkibiga kirishi milodning dastlabki asrlarida Hind aloqalarining kuchayishiga olib kelgan [6]. Hind badiiy an’anlari ta’siri Xolchayon saroyining Kushonlar davri qatlamidan va Termiz tumanidagi Kushonlar shahristonidan topilgan maymunning pishiq sopol haykalchalarida ko‘rinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagi ma’lumotlardan shuni aniq aytishimiz mumkinki o‘lkamiz qadim davlardanoq rivojlangan madaniyatlarga ega bo‘lgan. Biz buni nafaqat ushbu maqolamizda o‘rgangan Xolchayon saroyi yodgorligi misolida balki, yurtimizda joylashgan 2700 dan ortiq tarixiy obidalarning har birida ko‘rishimiz mumkin. Ular orasida esa Xolchayon saroyi yodgorligi ham alohida o‘rin tutadi va o‘zining boy o‘tmishi bilan ham muhim obyekt hisoblanadi. Uni o‘rganish orqali tarixni chuqqurroq o‘rganishimizga yordam beradi. Mana shunday arxeologik obyektlarni o‘rganish jarayonida o‘zimiz bilmagan yangi ma’lumotlarga ham ega bo‘lamiz va ular haqida bemalol o‘z fikrlarimizni bildirishimiz mumkin bo‘ladi. Biz bu yodgorliklarimizni tadqiq qilish va ularni alohida qo‘riqqa olib, rekonstruksiya qilishimiz orqali nafaqat ularni yo‘qolib borishini oldini olishimiz, balki uni butun dunyoga tanitishimiz va turizm sohasini ham rivojlantirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Chag‘aniyon tarixi, To‘plib nashrga tayyorlovchi va ruscha manbalardan tarjimon Abdinazar Xidirov, “Toshkent islom universiteti” – 2002. 16-34 betlar.
2. Пугаченкова. Г.А. Халчаян, К проблеме художественной культуры Северной-Бактрии, Т-1966
3. Пугаченкова. Г.А, Ртвеладзе Е.В, Северная Бактрия – Тохаристан, Очерки истории и культуры, Т-1990
4. Ртвеладзе Е.В, Великий шёлковый путь, Т-1999
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 456-457 betlar.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xolchayon>